




### Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-sentabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan tomonidan 15 581,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 109,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,4 %)ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **S**-Ishlab chiqaradigan sanoat  
**D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 10,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 20,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -5,0 % ga o'sishi kuzatildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 28,8 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar- sentabr oylari, % da )**




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	246,5	146,8	- 99,7




Ishlab chiqaradigan sanoat  
Yanvar-sentabr oylarida



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 859,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,4 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida - 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 16,9 % (17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 16,2 % (13,2 %) va quyi texnologiyalisi – 61,8 % (63,6 %)ni tashkil etdi.

## Yuqori texnologiyali

Ulushi % da

0,8

2020- y.

0,4

2021- y.

## O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi % da

17,4

2020- y.

16,9

2021- y.

## O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi % da

13,2

2020- y.

16,2

2021- y.

## Quyi texnologiyali

Ulushi % da

63,6

2020- y.

61,8

2021- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,0 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,0 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 114,6 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,4 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 63,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,4 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2021- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 26,7 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,2 martaga o'sgan), 130,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (1,9 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	23,6	28,2	4,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	215,2	234,5	19,3
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	145,4	573,9	428,5
Vino, ming litr	662,1	544,6	-117,5
Un, ming tonna	132,8	130,2	-2,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	21,8	26,7	4,9



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 440,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 foizga oshganligi kuzatildi.



**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
(yanvar-sentabr oylari, % da )






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	34,1	32,4	-9,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	63,1	43,7	-7,6



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 134,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
(yanvar-sentabr oylari, % da)

2020- yil % da

2021- yil % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	42,0	76,0	34,0
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	10,2	30,2	20,0
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	14,1	18,6	4,5
To'qimachilik chiqindilari, tonna	27,9	55,8	27,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 80,9 % ga, oqava suvlarni shlami 3,0 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 31,7 % ga oshganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 714,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 62,3 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,7 % (2020- yil yanvar-sentabr oyida 5,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 39,5 % ni, shuningdek, Urgut tumani 10,8 % ni, Samarqand tumani 10,2 % ni, Toyloq tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (109,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (236,0 %), Paxtachi (219,8 %), Kattaqo'rg'on (168,5 %), Toyloq (151,8 %), Ishtixon (125,8 %) hamda Narpay (124,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-sentabr oyida

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	3833,8	39,5	101,2		253,3	2,6	124,4
<b>Samarqand sh.</b>				<b>Narpay</b>			
	203,5	2,2	108,4		160,4	1,7	95,3
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>				<b>Payariq</b>			
	199,6	2,1	104,5		416,2	4,3	122,4
<b>Oqdaryo</b>				<b>Pastdarg'om</b>			
	317,3	3,3	124,1		204,4	2,1	219,8
<b>Bulung'ur</b>				<b>Paxtachi</b>			
	515,6	5,3	85,0		989,0	10,2	113,7
<b>Jomboy</b>				<b>Samarqand</b>			
	240,5	2,5	125,8		179,1	1,8	111,5
<b>Ishtixon</b>				<b>Nurobod</b>			
	389,7	4,0	161,7		1044,7	10,8	91,7
<b>Kattaqo'rg'on</b>				<b>Urgut</b>			
	50,5	0,5	236,0		717,1	7,4	151,8
<b>Qo'shrabot</b>				<b>Toyloq</b>			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 44,7 % ni, shuningdek, Urgut tumani 15,1 % ni, Jomboy tumani 7,5 % ni hamda Samarqand tumani 6,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (307,9 %), Paxtachi (220,9 %), Toyloq (193,0 %), Samarqand (135,3 %) hamda Oqdaryo (134,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	2503,8	41,9	97,7	Narpay	154,2	2,6	114,5
Kattaqo'rg'on sh.	115,2	1,9	82,0	Payariq	64,3	1,1	54,8
Oqdaryo	90,5	1,5	134,1	Pastdarg'om	165,8	2,8	83,2
Bulung'ur	125,6	2,1	96,9	Paxtachi	103,6	1,7	220,9
Jomboy	357,1	6,0	83,5	Samarqand	505,2	8,5	135,3
Ishtixon	126,4	2,1	88,0	Nurobod	74,3	1,2	87,1
Kattaqo'rg'on	164,9	2,8	106,0	Urgut	859,0	14,4	99,3
Qo'shrabot	28,3	0,5	307,9	Toyloq	536,0	9,0	193,0

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 35,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,9 % ni, Pastdarg'om tumani esa 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kattaqo'rg'on tumani (296,7 %), Kattaqo'rg'on shahar (186,3 %) hamda Ishtixon tumanida (299,4 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	1330,0	35,6	108,6		99,1	2,7	143,7
<b>Samarqand sh</b>				<b>Narpay</b>			
	88,3	2,4	186,3		96,2	2,6	187,9
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>				<b>Payariq</b>			
	109,2	2,9	88,4		250,4	6,7	177,8
<b>Oqdaryo</b>				<b>Pastdarg'om</b>			
	191,6	5,1	151,9		100,7	2,7	218,6
<b>Bulung'ur</b>				<b>Paxtachi</b>			
	158,4	4,2	88,7		483,8	12,9	97,5
<b>Jomboy</b>				<b>Samarqand</b>			
	114,1	3,1	299,4		104,9	2,8	139,2
<b>Ishtixon</b>				<b>Nurobod</b>			
	224,8	6,0	296,7		185,6	5,0	67,6
<b>Kattaqo'rg'on</b>				<b>Urgut</b>			
	22,2	0,6	182,1		181,1	4,8	93,1
<b>Qo'shrabot</b>				<b>Toyloq</b>			




**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 289,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi %da			O'sishi %da		
	15 581,9			100,0			109,3		
<b>Viloyat</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	7002,9	44,9	109,3		405,0	2,6	101,4		
<b>Samarqand sh.</b>			<b>Narpay</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	273,3	1,8	98,9		300,8	1,9	100,2		
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>			<b>Payariq</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	424,9	2,7	104,0		570,3	3,7	101,8		
<b>Oqdaryo</b>			<b>Pastdarg'om</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	333,3	2,1	104,6		257,7	1,7	115,1		
<b>Bulung'ur</b>			<b>Paxtachi</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	1744,9	11,2	103,5		1292,9	8,3	114,4		
<b>Jomboy</b>			<b>Samarqand</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	320,8	2,1	109,0		197,6	1,3	113,3		
<b>Ishtixon</b>			<b>Nurobod</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	464,8	3,0	106,7		1210,7	7,8	104,0		
<b>Kattaqo'rg'on</b>			<b>Urgut</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	54,5	0,3	105,7		727,4	4,7	132,1		
<b>Qo'shrabot</b>			<b>Toyloq</b>						




**Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 132,1 %), Paxtachi (115,1 %), Samarqand (114,4 %), Nurobod (113,3 %) hamda Samarqand shahri (109,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da**

**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati,% da**






Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,9 % ni), hamda Jomboy (11,2 %), Samarqand (8,3 %), Urgut (7,8 %), Toyloq (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %) hamda Nurobod (1,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (12 604,3 ming so'm), Jomboy tumani (9 825,0 ming so'm) va Samarqand tumani (5 005,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 916,7 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (404,7 ming so'm), Payariq (1171,8 ming so'm), Ishtixon (1 250,8 ming so'm) va Nurobod (1 283,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	3916,7		2441,9		
<b>Viloyat</b>					
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	12604,3	6900,3		1868,1	1168,5
	Samarqand sh.			Narpay	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2890,5	2233,8		1171,8	625,0
	Kattaqo'rg'on sh.			Payariq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2607,0	1224,8		1572,7	1147,8
	Oqdaryo			Pastdarg'om	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1744,9	1661,2		1756,7	1393,1
	Bulung'ur			Paxtachi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	9825,0	2903,1		5005,2	3829,0
	Jomboy			Samarqand	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1250,8	923,3		1283,1	1163,3
	Ishtixon			Nurobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1685,7	1398,2		2310,4	1993,6
	Kattaqo'rg'on			Urgut	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	404,7	375,1		3512,5	3462,4
	Qo'shrabot			Toyloq	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 567,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,2 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur, Qoʻshrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqoʻrgʻon (84,3 %), Urgut (74,8 %) tumanlarida va Kattaqoʻrgʻon shahar (78,2 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichik ulush Narpay (19,8 %), Ishtixon (26,4 %), Samarqand shahar (24,9 %) va Toyloq (32,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8 224 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 746 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,2 %ni) Samarqand shahriga, 1 201 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 790 tasi (9,6 %) Samarqand tumaniga, 763 tasi (9,3 %) Pastdarg'om tumaniga, 510 tasi (6,2 %) Ishtixon tumaniga, 383 tasi (4,7 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1591 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 218 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,7 %) Urgut tumanida, 206 tasi (12,9 %) Samarqand shahrida, 181 tasi (11,4 %) Samarqand tumanida, 175 tasi (11,0 %) Pastdarg'om tumanida hamda 112 tasi (7,0 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari**  
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 746 ta), Urgut (1201 ta), Samarqand (790 ta), Pastdarg'om (763 ta), Ishtixon (510 ta) va Jomboy (383 ta) tumanlari qayd etildi.

**Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi**  
(2021- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi**  
(2021- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shrabot (155 ta), Nurobod (180 ta), Narpay (226 ta), Paxtachi (223 ta), Bulung'ur (306 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (295 ta) qayd etildi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 54 ta loyiha bo'yicha 909,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 14,2 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021-yil yanvar-sentabr oylarida 136 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 2,6 marttaga ko'payganligi kuzatildi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining ko'payganligi kuzatildi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	64	54
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	24	27
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	403,8	909,9
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	8,6	14,2
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	54	136

Sanoat statistikasi

Bo'limi

Tel.: (66) 235-06-80